

## ALISHER NAVOIY EPIK ASARLARINI ZAMONAVIY USULLARDA O'RGATISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

**Hilola Raimovna Mirzarahimova**

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2-sonli  
Toshkent akademik litsey ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *“Navoiyning nasriy asarlarini o'rganishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish” mavzusidagi mazkur maqolada “Xamsa” asarini o'quvchilarga zamonaviy ta'lim usullari orqali o'rgatish masalalari nazariy va metodik jihatdan o'rganiladi. Shuningdek, Alisher Navoiy epik asarlarini o'quvchilarga zamonaviy usullarda o'rgatishning pedagogik imkoniyatlari, metodik hamda amaliy asoslarini yaratish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mavzuni yoritishda foydalanilgan vizual materiallar, video darslar, taqdimot slaydlari ham tadbir etiladi. Akademik litsey o'quvchilariga Navoiy epik asarlarini o'rgatish jarayonida qo'llanadigan usullar amaliy tahlil qilinadi. Maqola maqsadli amalga oshirilgan.*

**Annotation:** *In this article on the topic “the use of modern information Technology in the study of prose works of Navoi”, the issues of teaching “Khamsa” to students student theoretically and methodically. Scientific conclusions and praktikal recommendations will also be developed on the pedagogical possibilities, methodical and practical foundations of teaching Alisher Navoi's epic works to students in modern ways. Visual materials, video lessons, presentation slides used in the coverage of the topic are also implemented. The method used in the process of teaching Navai epic works to students of academic lyceums are practically analyzed. The was carried out purposefully.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim tizimi, usullar, nasriy asarlarini, epik asarlarini, innovatsiya, ta'lim modeli, mexanizm, “Aqliy hujum”, “Burchaklar usuli”, “Rolli o'yin”.*

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya tizimi o'rgatish usullarining boy tajribasiga ega. Ta'limda usullar to'g'ri tanlanar ekan, ko'zlangan natijaga qisqa yo'l bilan erishish mumkin. Ta'lim-tarbiya sohasining to'xtovsiz takomillashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi umumta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'rgatish usullarini muttasil yangilab turishni taqozo etmoqda.

O'rgatish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining xarakterini, o'qish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, o'rgatish usullari har ikkkala faoliyatni, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Demak, o'rgatish usullari pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro birgalikdagi faoliyatini ko'zda tutadi. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining turi, usuli o'rgatiladigan

ma'lumotning xarakteriga qarab belgilanadi. Aynan mana shu holat ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi.

O'qitishning zamonaviy usullari hozirgi kunda pedagogika fani va amaliyotida alohida dolzarflik kasb etib bormoqda. Ta'lim jarayoniga yangi g'oyalarning kirib kelishi pedagogik innovatsiyani anglatadi. Demak, pedagogik innovatsiyalashuv ta'lim jarayonining yangi metodik bilimlar bilan to'xtovsiz boyitilishini, ta'limga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning jahon talablari darajasida bajarilishini taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda shunday ta'lim modellari yaratildiki, ular ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlash bo'yicha keng imkoniyatlarga egadir.

Pedagogik jarayon sifatida adabiy ta'lim to'laqonli bir tizim deb qaraladigan bo'lsa, uni tashkil etuvchi unsurlar quyidagilardir: ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijalar, ta'lim beruvchi - o'qituvchi va bilim oluvchi - o'quvchi, ta'lim tamoyillari, ta'lim mazmuni, metodi, shakli, vositalari, nazorat va baholash mexanizmlari. Adabiy ta'lim zamonaviy usullar asosida tashkil etilganda, uning tarkibiy tuzilmasidan birortasi e'tibordan chetda qolsa yoki noto'g'ri tanlangan bo'lsa, tizim ishlamaydi, bu esa ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga erishmaslik ehtimolini yuzaga keltiradi. Zamonaviy usullar asosidagi tashkil etilgan ta'lim jarayonining tarkibiy tuzilmasini quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin.



Hozirgi kunda mamlakatimizda rivojlanayotgan dunyo ta'limi fazosiga qo'shilish imkoniyatini beradigan yangi ta'lim tizimi tarkib topmoqda pedagogika fani O'zbekistonda shaxs manfaati ustuvorligini e'tirof qilgan holda erkin shaxsni tarbiyalash qonuniyatlari, shakl va metodlari, mazmun va tamoyillarini bir butun

o'rganadi. Zamonaviy ta'lim usullari qo'llangan o'quv jarayonida ham an'anaviy sinfdars tizimi saqlanadi. Faqat unda o'rgatishning tashkiliy shakllari, usullari takomillashadi.

O'qitish tizimi paydo bo'lib, ta'lim nazariyasi vujudga kelgandan e'tiboran ta'lim beruvchilar tomonidan ta'lim maqsadiga erishishning samarali, qulay usullari izlab kelingan. Ayniqsa, o'tgan asrning 70-yillarida olimlar, amaliyotchi pedagoglar tomonidan ta'lim jarayonini faollashtirish, bilim berishning optimal usullarini izlab topish maqsadida tadqiqot va tajribalar olib borildi. Bu tadqiqolarning natijasi sifatida muammoli ta'lim usuli paydo bo'ldi.

Respublikamizda zamonaviy usullarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi muammoli ta'limni hozirgi sharoitda dolzarb pedagogik masalaga aylantirdi. Jumladan, Q.Husanboyevaning<sup>10</sup> tadqiqot ishida asosiy e'tibor adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilar ekan, ushbu maqsadga erishish yo'llaridan biri sifatida darslarda muammoli vaziyatlarni yaratish asosida qo'yilayotgan masalaning yechimini topishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatini tashkil etish alohida e'tirof etiladi. Muallif muammo yechimini topishga urinish jarayonida turli metod va vositalardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Bugungi kunda adabiy ta'lim amaliyoti o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi "Guruhlarda ishlash", "Aqliy hujum", "Burchaklar usuli", "Rolli o'yin" kabi bir qancha interfaol usullar bilan boyidi.

O'qitishning noan'anaviy shakllaridan bo'lmish hamkorlikda o'rganish o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metoddir.

Hamkorlikdagi ta'limning bir ko'rinishi kichik guruhlariga bo'linganda uning a'zolari 6-7 kishi bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki hozirda sinflarda o'quvchilar soni 30-35 nafarni tashkil etmoqda. Guruhda ishtirokchilar sonining ko'pligi guruh a'zolarining faol ishtiroklariga halaqit beradi; guruh tarkibini tanlashda, albatta, har bir guruhga "a'lo", "yaxshi" va "qoniqarli" o'zlashtiruvchi o'quvchilar teng miqdorda kiritilishi talab qilinadi. Hech qachon "kuchlilar" va "kuchsizlar" guruhi tuzilmasligi lozim; guruh a'zolari guruhning o'zlashtirishiga qarab, yangilanib turishi kerak.

Kichik guruhlarda ishlashda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi:

- guruhlariga aniq ko'rsatmalar berish;
- ishtirokchilar topshiriqlarni to'liq bajarishi uchun yetarlicha bilim va ko'nikmaga ega ekanligiga ishonch hosil qilish;
- guruhlarning qoidani buzmaganda holda ishlashini ta'minlash;
- guruhda kechayotgan har bir jarayonni baholab borish (ushbu usulning amalda joriylanish tarzi 2-bobning 2-faslida keltirildi).

Ta'limning interfaol usullaridan biri bu "fikriy hujum" sanaladi. Fikriy hujum dars o'tish jarayonida guruhga biror bir muammoni hal etish uchun o'rtaga tashlash orqali mikroguruh a'zolarini mustaqil fikrlash, muammoni atroflicha mushohada etish orqali o'z nuqtai nazarini shakllantirishga qaratilgan usuldir. Guruhda "Aqliy hujum", "Burchaklar usuli", "Rolli o'yin" usuli bilan "Farhod va Shirin" dostonini o'tishda quyidagilarni amalga oshirish zarur bo'ladi:

1. Guruhlarda muhokama etish uchun muammo qo'yiladi. Masalan, "Farhod shaxsiga xos barcha yaxshi va yomon sifatlarni sanang".

2. Xayolga kelgan barcha farazlar qabul qilinadi (tajribada qo'yilgan savolga quyidagi javoblar olindi: yigit, shahzoda, usta, olim, shoir, chiroyli, kuchli, oshiq).

3. Taklif etilgan barcha farazlar muhokama etiladi. Aytilgan fikrlardan "kuchli" ustida muhokama olib borildi.

4. G'oyalar umumlashtiriladi, tahrir etiladi va o'z ahamiyatiga ko'ra yo'nalishlarga taqsimlanadi (Farhod shaxsiga ta'rif beriladi).

5. Kichik guruh ichida yagona fikrga kelingach, bu to'xtamni taqdim etuvchi vakil aniqlanadi.

6. Taqdim etilgan farazlarning to'g'riligi tekshirib ko'riladi.

Agar mos kelmasa, bu jarayon qaytariladi.

"Fikriy hujum" usulini samarali qo'llay olgan o'qituvchi o'quvchilarini mavzuga oid muammoli savol, muammoli topshiriq va vaziyatlarning yechimiga osonlik bilan kechishiga erishishi mumkin.

"Charxpalak" metodi mavzu yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda puxta o'zlashtirishda samarali usul sanaladi. Ushbu usulni qo'llash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

1. Sinf kichik guruhlarga bo'linadi.

2. Har bir guruhga savollar bo'lib beriladi.

3. Har bir guruhga qog'oz beriladi va guruh a'zolari 4-5 daqiqa mobaynida o'zaro fikrlashib, javobni qog'ozga yozadilar.

4. Belgilangan vaqt o'tgach, o'qituvchining ishorasi bilan mikroguruhlar raqamiga qarab javoblar yozilgan qog'ozni keyingi guruhga uzatadilar.

5. Guruh har bir savolga o'zidan oldingi guruh yozganiga qo'shimcha javobiga qo'shimcha qiladilar.

6. Har bir guruh a'zolari o'zining yozgan javobini izohlab beradi.

7. Har bir guruhning savollarga yozgan javobi boshqa guruhlarning qo'shimcha izohlari berilgan holatda o'ziga qaytib keladi. Demak, savollar yozilgan qog'oz guruhlari orasida aylanib, to'ldirilgan javoblar shaklida keladi.

8. O'qituvchi yozilgan javoblarga qarab mikroguruh a'zolarini baholaydi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida bu usuldan Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonini o'rgatish bo'yicha foydalanildi.

Ushbu metodning afzalligi shundan iboratki, bunda guruh a'zolari savollarga bo'lib tashlangan mavzuni to'liq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Har bir

guruhning fikrlari muhokama qilinishi natijasida guruh a'zolari o'z yutuq va kamchiliklarini aniqlab oladi. Eng muhimi, o'quvchilar mustaqil fikrlashga, faollikka yo'naltiriladi va ularda bilim shakllanibgina qolmay, bir-birlarini baholay olish ko'nikmasi ham paydo bo'ladi. SHu yerda muammoli va hamkorlikdagi ta'lim usullari o'zaro uyg'unlashadi. Ya'ni, o'quvchi ham yolg'iz izlanadi, ham o'z fikrini o'rtoqlariga yetkazib, asoslash orqali birgalikda bilim o'zlashtiradi.

Interfaol ta'limning yana bir samarali usuli bu "Burchaklar usuli"dir. "Burchaklar usuli" o'quvchilarning bahs-munozara tashkil etishga yo'naltiruvchi hamkorlikda bir-birini o'qitish faoliyatidir. Bu usul o'quvchilar mavzu bilan tanishib chiqqanlaridan so'ng tashkil qilinsa, maqsadga muvofiqdir.

Burchaklar usulini tashkil qilishda quyidagi bosqichlarga amal qilinadi:

1. Muhokama qilish uchun mavzu tanlab olinadi.
2. Mavzu yuzasidan qatnashchilar yakka tartibda navbat bilan o'z fikrlarini bildirishadi.
3. Bir-biriga o'xshash qarash va fikr egalari guruh hosil qilib, birlashadilar.
4. Har bir guruh a'zolari navbat bilan o'zining qarashlarini izohlab beradi.
5. Boshqa guruh a'zolarining qarashlarini asosli, kuchli deb bilgan guruh a'zosi o'z qarashlarini o'zgartirib, boshqa guruhga qo'shilishi mumkin.
6. O'qituvchi munozaradan yakuniy xulosa chiqaradi.

Interfaol usullar asosida o'qitishning eng asosiy sharti hamkorlikdagi ta'limni yo'lga qo'yishdir.

Ma'lumki, pedagogik jarayonda ba'zi o'quvchilar o'qituvchining aytganlarini tez tushunishadi va ularda muloqot qilish ko'nikmalari ham tez shakllanadi. Ba'zi o'quvchilarda bu jarayon qiyinchilik bilan kechgani uchun ularga ko'p vaqt sarflab-gina qolinmay, balki o'quv materialini mazmunini to'liq tushunib yetish uchun qo'shimcha topshiriq yoki tushuntirishlar olib borilishi ham kerak bo'ladi. Bunday o'quvchilar dars jarayonida boshqa o'quvchilar oldida savol berishga, tushunmaganlarini so'rashga tortinishadi. Hatto, ayrim o'quvchilar tushunmaganliklarini bilishmaydi yoki tan olishmaydi. Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarish-ga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga olib keladi. Hamkorlikda o'qish usulining asosiy g'oyasi topshiriqlarni o'qituvchi bilan birgalikda bajarishgina emas, balki barcha o'quvchilarni o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinuv sharoitida faoliyat ko'rsatishga odatlantirishdan iboratdir.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning o'quv faoliyatida o'rganilayotgan asarni tushunishi, anglashi o'ziga xos psixologik-pedagogik jarayon hisoblanadi. Chunki o'quvchilar o'rtasida ta'limiy aloqani yuzaga keltirish murakkab jarayon bo'lib, u o'zida bir qator psixologik jihatlarni namoyon etadi. SHu bois ta'lim jarayonida ularga alohida e'tibor qaratish lozimdir. Jumladan:

1) fikrni aniq bayon etish (masalan, munozara ishtirokchilarining xatti-harakatlarini baholashda uchinchi shaxsda emas, birinchi shaxsda murojaat qilishlariga erishish. Masalan “Menimcha, bu o’rinda Alisher nohaq” emas, balki “Alisher, menimcha **bu o’rinda** Sen nohaqsan” deya to’g’ridan-to’g’ri murojaat qilish, birinchidan, fikrning aniqligini ta’minlasa, ikkinchidan, qolgan o’quvchilarning e’tiborini ham aniq holatga qaratilishiga olib keladi;

2) mavzu doirasida harakat qilish (ya’ni “shu yerda va hozir” shioriga muvofiq ayni vaziyatda o’ylayotgan va his qilayotgan narsalarni muhokama qilish).

Zamonaviy usullarning zarur shartlaridan biri ta’lim jarayonida o’qituvchining vazifasi bir qadar o’zgarib, o’quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlovchi, yo’naltiruvchi, maslahat beruvchiga aylanishidan iboratdir. Ta’limning zamonaviy usullari o’quvchilarni faollashtirishga, ularni ishlatishga asoslangani uchun jiddiy tarbiyaviy mohiyat ham kasb etadi. Shu bois har bir o’quvchida a) jamoa bilan ishlash ko’nikmasi; b) xushmuomalalik; v) xushfe’llik; g) ko’nika bilish; d) o’zgalar fikriga hurmat bilan munosabatda bo’lish; ye) faollik; yo) mas’ullik; j) ishga ijodiy yondashish; z) o’z faoliyatining samarali bo’lishiga qiziqish; k) o’zini holisona baholay olish kabi sifatlarni shakllantiradi.

Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini o’quvchilarga o’rgatishda yuqorida ko’rsatilganlardan tashqari “Bumerang”, “Klaster”, “Elpig’ich”, “Muloqot” kabi interfaol usullar katta samara berishi mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayonida hamkorlikda o’qitish metodlaridan foydalanish har bir o’quvchini kundalik qizg’in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o’rgatish, unda shaxs sifatida mustaqillikni tarbiyalash, har bir o’quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg’usini vujudga keltirish, o’z kuchi va qobiliyatiga bo’lgan ishonchini mustahkamlash, tahsil olishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko’zda tutadi. Hamkorlikda o’qitish har bir o’quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishi yoki aksincha bo’lishi mumkinligini anglagan holda uni muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o’quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o’quv materialini puxta o’zlashtirishga, sinfdoshlari bilan hamkorlik qila bilishga odatlantiradi.

Interfaol usullar faqat ta’limiy hamkorlik qilish yoki faqat muammoni tadqiq etishga yoxud faqat mustaqil ishlashdangina iborat deb hisoblash noto’g’ri bo’ladi. Chunki har qanday usul bir vaqtning o’zida o’quvchini ham muammoning yechimini topishga (tayyor ko’rsatmalar asosida ishlanganda ham o’quvchi to’g’ri xulosani tanlash asnosida fikr yuritadi, demakki, o’quvchi mavzu-muammo doirasida tanqidiy fikrlaydi), ham mustaqil xulosa chiqarishga (hamkorlik asosiga qurilgan o’quv jarayonida o’quvchi o’z fikrini asoslash va himoya qilish barobarida muayyan xulosaga keladi), ham hamkorlikda ishlashga yo’naltirishi mumkin.

Interfaol usullar o’quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirishi, ularda o’zaro hamkorlik, o’zaro yordam tuyg’ularini shakllantirishi, faol muloqotga asoslanib ta’lim

olishga imkon berishi, eng muhimi, badiiy matnni mustaqil ravishda, o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib qabul qilishga odatlantirishi bilan e'tiborga loyiqdir.

Interfaol usullar pedagogik sharoitda barcha ishtirokchilarning o'zaro ta'siri, hamkorligi yordamiga ehtiyojni yuzaga keltiruvchi aniq natijaga erishishda vaqt va inson resurslaridan maqsadli foydalanishga asoslangan usullardir.

Interfaol usullar "Xamsa" asarini o'rgatishga bag'ishlangan mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Quyida ushbu usullarning ayrimlariga xos xususiyatlarga qisqacha to'xtalamiz.

**"Tarmoqlar" metodi** – o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga odatlantirish, ularning fikr doirasini kengaytirish, adabiyotlardan mustaqil ravishda foydalanishga o'rgatishga qaratilgan. Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarning biror mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki fikrlarni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tizimlashtirishga o'rgatadi. Bu metod biror mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda shu mavzu bo'yicha o'quvchilarning tasavvurlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Bu usuldan Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni yuzasidan obrazlarga ta'rif keltirishda foydalanildi. Ya'ni tarmoqning birinchi bo'g'inida obraz nomi keltirilsa, keyingi boylamida ushbu obrazga xos sifatlar keltiriladi. Natijada o'quvchilar dostondagi har bir obrazga xos bo'lgan axloqiy sifatlarni jamlashga erishadilar.

**"Yelpig'ich" metodi.** Murakkab, ko'p tarmoqli bu usul muammo xarakteridagi mavzularni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha birato'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida muhokama etiladi. Masalan, asar qahramonining yutug'i va muvaffaqiyatsizliklari, fazilat va kamchiliklari, biror bir voqea-hodisaning sababi va oqibatlari belgilanadi. Bu interfaol usul o'quvchida tanqidiy, tahliliy, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga va o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shakllarda ixcham bayon etish, himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

"Yelpig'ich" usuli mavzuning ayrim jihatlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlar va ulardagi har bir ishtirokchining faol ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu metod asarni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin.

1. Asar bilan tanishish bosqichida o'quvchilar bilimni faollashtirish, ya'ni yodga solish, foydalaniladigan holatga keltirish uchun.

2. Mavzuni o'rganish jarayonida uning asoslarini chuqur anglab yetish maqsadida.

3. Yakunlash bosqichida olingan bilimlarni tartibga solish niyatida.

Ushbu usulning "elpig'ich" deb nomlanishiga sabab shuki, bu metodni ishlatish jarayoni chizma shaklda ifodalansa, yelpig'ichga o'xshab ketadi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini mustahkamlash qismida o‘qituvchi shu metoddan foydalanib o‘quvchilarning fikrlarini yozma shaklda ixcham bayon etish topshirig‘ini beradi. Topshiriq ikki turda bajariladi. Darslikda berilgan matnga tayangan holda “Farhoddan o‘rganganlarim” (yaxshi fazilatlar), “Farhodga maslahatlarim” kabi ikki yo‘nalishdagi faoliyat amalga oshiriladi.

“Farhoddan o‘rganganlarim” (yaxshi fazilatlar) va “Farhodga maslahatlarim” topshiriqlari o‘quvchilar tomonidan o‘qituvchi rahbarligida “elpig‘ich” usulida mustaqil tarzda bajarilsa, quyidagi shakldagi holat yuzaga kelganligini kuzatish mumkin bo‘ladi.



“Muloqot” o‘quv-munozara shaklida o‘tkazishga mo‘ljallangan usul bo‘lib, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishga yo‘naltiradi hamda ularda muloqot madaniyatini shakllantiradi. Ushbu usul ham hamkorlikka asoslanadi, ya‘ni mashg‘ulotlar o‘quvchilarning kichik guruhlarida bo‘lishini ko‘zda tutadi. Ushbu usulni adabiyot darslarida qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning asarga bo‘lgan munosabatini aniqlash, mustaqil holda umumiy fikrga kelishlariga va to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin bahslashishlariga sharoit yaratish hisoblanadi.

Zamonaviy usullar adabiy ta‘limda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro tenglikka asoslangan faol muloqot, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning yetakchilik qilishlari, bir-birlari bilan fikr almashishlari, o‘rganilayotgan mavzu yoki o‘quv materiali bo‘yicha mustaqil fikrlash, o‘z qarashlarini ilgari surish, ularni dalillar yordamida asoslash va ma‘lum xulosalarga kelish orqali ta‘lim maqsadlariga erishish imkonini beradi.

Ta‘lim jarayonida zamonaviy usullardan foydalanishda o‘quvchilarning imkoniyatlari interfaol usullarning maqsad va vazifalariga mos kelishi, o‘qituvchining o‘quvchilar guruhlariga ta‘sir ko‘rsata olish layoqatiga egaligi ta‘lim samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:



1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–engilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009.
3. Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. //Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi //Xalq so'zi. –Toshkent, 2016, 8 dekabr
5. Adabiyot. Akademik litseylar uchun o'quv dasturi. Tuzuvchilar: B.To'xliiev, B.Sarimsoqov. Toshkent, 2000.
6. To'xliyev B. Adabiyot. Akademik litseylarning birinchi bosqichi uchun darslik. Toshkent, 2014.
7. To'xliyev B., Abdurahmonova B. Adabiyot. Akademik litseylarning ikkinchi bosqichi uchun darslik. – T.: CHO'lpon, 2015.
8. Rafiev A, G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: SHarq, 2015.
9. To'ychiyeva M. Adabiyot darsliklaridagi savol va topshiriqlar haqida. Til va adabiyot ta'limi //2005, 3-son,
10. S.Axmedov., Qosimov B. Adabiyot. 5 - sinf uchun darslik-majmua. – T.: Sharq.2011.
11. S.Olimov., S.Axmedov., R.Qo'chqorov. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent, 2005.
12. Yo'ldoshev Q. Qosimov B. Adabiyot 7-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent, 2009.
13. S.Axmedov., Qosimov B., R.Qo'chqorov. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik-majmua. – T.: Sharq, 2011.
14. S.Axmedov., Qosimov B., R.Qo'chqorov. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik-majmua. – T.: SHarq, 2011.
15. “Uzluksiz ta'lim jarayonini o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash muammolari” respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent, O'zpFITI. 2001.
16. B.Qosimov, B.To'xliyev, Q.Yo'ldoshev. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. Toshkent. 2004.
17. N.Karimov va boshqalar. Adabiyot 11-sinf uchun darslik, majmua. Toshkent. 2004.
18. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., SHarafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlarining bakalavr yo'nalishidagi talabalar uchun darslik. -Toshkent, O'qituvchi, 1999.
19. Zunnunov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: “O'qituvchi”, 1992.
20. Azizxodjaeva N.N. pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T., 2006

21. [htt': // www.markaz.uz](http://www.markaz.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus kasb–hunar ta’limi markazining sayti.
22. [htt': // www.bimm.uz](http://www.bimm.uz) – Bosh ilmiy metodik markazi sayti.
23. [htt': // www.eLibrary.ru](http://www.eLibrary.ru) – ilmiy elektron kutubxona sayti
24. [htt': // www.e-ilm.uz](http://www.e-ilm.uz) – masofadan turib o‘qitish tizimining sayti